



## XORIJIY TILLARNI BADIY ADABIYOT ASOSIDA O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY TAHLILLARI

*Sattorova Sh.R.*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti*

**Tayanch so'zlar:** badiiy adabiyot, nasriy asar, adabiy matn, motivatsiya, tahlil, kommunikativ yondashuv.

**Ключевые слова:** литература, прозаическое произведение, художественный текст, мотивация, анализ, коммуникативный подход.

**Key words:** literature, prose work, literary text, motivation, analysis, communicative approach.

**РЕЗЮМЕ:** Xorijiy tillarni adabiyot, jumladan, adabiy matnlar asosida o'qitishning ilmiy-nazariy tamoyillari, lingvistik va didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan hamda adabiyotlar va undan dars jarayonida foydalanish imkoniyatlari va samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

**РЕЗЮМЕ:** Были рассмотрены научно-теоретические основы, лингвистические и дидактические возможности обучения иностранным языкам на основе литературы, в том числе текстов, а также высказано мнение о возможностях и эффективности литературы и ее использовании в ходе урока.

**SUMMARY:** Scientific-theoretical principles, linguistic and didactic possibilities of teaching foreign languages on the basis of literature, including literary texts, were considered, and opinions were expressed about the possibilities and effectiveness of literature and its use in the course of the lesson.

XXI asrda til o'rganish jarayonlari globallashuv sharoitida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xorijiy tillarni o'rgatish tizimida badiiy adabiyotlardan foydalanish ta'lim jarayonining ilmiy, metodik va madaniy jihatlarini boyituvchi muhim manba sifatida e'tirof etilmoqda. Badiiy asarlar orqali til o'rgatish, talabalarda nafaqat lingvistik kompetensiyalarni rivojlantiradi, balki ularni tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati, adabiyoti va ijtimoiy hayoti bilan ham tanishtirish imkonini beradi.

Badiiy adabiyotlar orqali til o'rgatish tilning ko'p qirraliligini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu usulda til o'quv jarayoni nafaqat grammatik qoidalar va lug'at bilan cheklanmaydi, balki talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini kengaytirish, madaniy va ijtimoiy muhitda tilni anglashni ham rivojlantiradi.



Badiiy adabiyotdan foydalangan holda dars jarayonlarini rejali tashkil etish har bir o'qituvchining mehnat talab qiladi, tilni o'rgatish jarayonini qiziqarli va samarali qilib tashkil etish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar tajribasida xorijiy tillarni o'qitish va badiiy adabiyotlardan foydalanish metodikasi bugungi kunga kelib ko'proq tajribalar olib borishni va izlanishlarni talab qilmoqda. Badiiy adabiyot talabalar fikrini boyitish, madaniy va ijtimoiy bilimlarini oshirish imkonini beribgina qolmasdan, dars jarayonlarida samarali foydalanish natijasida o'zlarining kasbiy mahoratini yanada yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatiga erishadilar.

Innovatsion yondashuvlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali o'qituvchilar talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga, so'z boyliklarini boyitishga va ularning madaniy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradilar. Bunday yondashuvlar talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning tilini boyitishga yordam beradi. Badiiy adabiyotdan foydalanish orqali o'qituvchilar o'zlarining kasbiy faoliyatini yanada yuqori darajaga ko'tarib, talabalar bilan samarali muloqot qilishlarini ta'minlashlari mumkin. Natijada badiiy adabiyot talabalarga turli janr va uslublarda yozilgan matnlar bilan tanishish imkonini berib, ularning leksik zaxirasini boyitishga yordam beradi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni tahlili hamda taniqli olimlar A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqalarning pedagogik faoliyatini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, aynan talabalar bilan o'qituvchi muloqotining pedagogik ta'sir vositasini hoyatda beqiyos, muloqotni pedagogik mahoratning eng muhim birlamchi vositasi sifatida chuqur egallaganlik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini har tomonlama oshirishni ta'minlaydi. O'qituvchining kommunikativ faoliyati maqsadli faoliyatga nisbatan ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'ladi, pedagogik mehnatning o'ziga xosligi ham aynan kommunikativ faoliyat uning asosini tashkil etishidan iborat ekanligi bilan izohlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalariga xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid T.K.Sattarov, V.I.Normurodova, G.S.Sabirova, F.Sh.Alimovning tadqiqot ishlari olib borilganligini ko'rishimiz mumkin. Til o'qitish vositalari, ilmiy-nazariy tahlillari, metodik tamoyillar, mashqlar tipologiyasi hamda tizimi va ularning ahamiyati G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, M.D.Djusupov, D.R.Djumanova, D.U.Xashimova, I.M.To'xtasinovning ishlarida ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek maktablarida adabiyot o'qitish metodikasi A.Zunnunov, T.Bobojev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, S.Axmedov, B.Jalilov, M.Sharipova, S.Ismatov, M.Mirfayozov, O.Musurmonova, M.Oxunova yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qo'llanmalarida yoritib berilgan. Badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirish masalalari esa xorij olimlari A.Burns,

L.J.Dorn, S.Ehlers, G.Genette, J.Grzesik, K.M.Merga, E.Ortlieb, A.Perrin, G.Westhoff, H.Willenberg tomonidan tadqiq etilgan.

Tilshunos olim K.Kramshning fikriga ko'ra, "adabiyot orqali til o'rgatish til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini tushunishga imkon beradi" [4]. Bu yondashuvning ilmiy asosi shundaki, badiiy adabiyotlar tilning boy ifodaviy vositalarini o'zida aks ettiradi, turli leksik va grammatik konstruksiyalarning tabiiy ishlatilishini talabalarga namoyon qiladi. V.G.Kostomarovning ta'kidlashicha, "adabiy asarlar tilning tabiiy muhitda ishlatilishini ko'rsatish orqali tilni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi" [2]. Shunday qilib, badiiy asarlar tilni o'rgatish jarayonida talabalarning tasavvurini kengaytirish, ularni tilning semantik jihatlariga e'tibor qaratishlariga yordam beradi.

Xorijiy tillarni o'qitishda badiiy adabiyotlardan foydalanish metodik jihatdan ham samarali bo'lib, bir nechta yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Lingvodidaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy asarlar til o'rgatish jarayonini ko'rgazmali, kontekstual va madaniy nuqtayi nazardan boyitadi. Tilshunos va metodist A.Duff o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, "badiiy asarlar real va to'laqonli til namunalarini taqdim etadi, bu esa o'quvchilarning tilni amaliy jihatdan o'zlashtirishga imkon yaratadi" [3].

Didaktik jihatdan badiiy adabiyotlar tilni o'rganish jarayonini boyitishning qulay vositasi sifatida xizmat qiladi. Matnlar talabalarda to'g'ri talaffuz va intonatsiyani shakllantirishga, grammatik qoidalarni tabiiy kontekstda o'rganishga va leksik birliklarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xalqlar madaniyati va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi adabiy asarlar orqali talabalar faqatgina tilni emas, balki ushbu xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini va qadriyatlarini ham o'zlashtiradilar. Bu jihatni tilshunos olim M.Byram o'z tadqiqotlarida ta'kidlab, "til o'rganish jarayonida madaniy kompetensiyalarni shakllantirish badiiy asarlar orqali yanada chuqurroq amalga oshiriladi" [5] deydi.

Madaniy va ijtimoiy kontekst til o'rgatishda adabiyotning ta'limiy funksiyasini kengaytiradi, tilning madaniyat va tarix bilan uzviy bog'liqligini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, adabiy matnlar talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, ularni muallifning fikrlari va yozish uslubini chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Bunday yondashuv tilni nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki madaniyatni tushunish manbai sifatida ham o'rganishni ta'minlaydi.

Xorijiy tillarni o'rgatishda badiiy asarlarni to'g'ri tanlash talabalar til bilim darajasiga mos kelishi va tilni o'rganish maqsadlariga xizmat qilishi muhimdir.

D.Lazerning ta'kidlashicha, "matn tanlashda o'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasi va ularning lingvistik qiziqishlari e'tiborga olinishi kerak" [1]. Dastlabki



bosqichlarda til o'rganuvchilar uchun qisqa hikoyalar va dialoglar, o'rtacha va yuqori darajalarda esa to'liq romanlar va novellalar tavsiya etiladi.

H.Hesse, T.Mann kabi nemis yozuvchilarining asarlari tilni o'rganish jarayonida eng samarali vositalar hisoblanadi. Ularning asarlari tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, murakkab leksik birliklar va grammatik tuzilmalardan foydalangan holda o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu asarlar o'quvchilarga nemis madaniyati va tarixi haqida chuqurroq ma'lumot beradi.

Darsda nasriy asarlarni (hikoya, roman yoki qissadan parcha) o'qib o'rganish birinchi navbatda talabalarni bu ishga leksik va grammatik jihatdan tayyorlashdan tashqari ushbu asarlardagi murakkab, muammoli jihatlarni bartaraf etishga, shundan keyingina adabiy materialni tadqiq etishga qaratilishi madsadga muvofiq. Talabalarga muayyan kommunikativ muammolarni hal qilish jarayonida o'z niyatlarini amalga oshirish imkoniyati berilishi kerak. Xorijiy tilni o'qitishning mohiyati mexanik yodlash emas, balki materialni intellektual va ijodiy qayta ishlash va uni to'g'ri talqin qilishdan iborat bo'lishi kerak [1].

Talaba passiv va befarq kuzatuvchi bo'lmasligiga ishonch hosil qilish va o'z navbatida unga o'z faoliyatini namoyish etish imkoniyatini berish kerak. U o'z faoliyatidan xabardor bo'lishi, natijasini ko'rishi va xatolarini tahlil qilishi kerak. Guruhdagi talabalar turli darajadagi bilimlarga ega ekanliklarini hisobga olib, darsda har bir talaba yoki mikro guruh uchun vazifani alohida shakllantirish maqsadga muvofiq. Agar talaba o'z ishining natijalaridan qoniqsa, o'rganish sifati va shunga mos ravishda o'rganish motivatsiyasi oshadi.

Til o'qitish tizimining (vositalarining) ko'rsatilgan xususiyatlaridan tashqari, ular butun o'quv jarayonini tashkil etishning umumiy vositalarida farqlanadi, bunda o'qituvchining nazorat faoliyati (yo'l-yo'riqli o'qitish - boshqa yo'naltirilgan) ustunlik qilishi mumkin. o'rganish), yoki shunga mos ravishda talabalarning o'zlari faoliyati (nemis tilini mustaqil o'rganish - mustaqil o'rganish).

Sanab o'tilgan xususiyatlarga asoslanib, texnika tarixiga oid ishlarda quyidagi vositalar ajratiladi:

- tarjima vositalari (grammatik-tarjima va leksik-tarjima);
- bevosita va tabiiy vositalar va ularning modifikatsiyalari;
- aralash vositalar;
- ongli-qiyosiy va ongli-amaliy vositalar;
- zamonaviy o'qitish metodi nemis tillarini o'qitishning kommunikativ tizim-faollik usuli sifatida belgilanadi.

Xorijiy tillarni o'qitishda ayniqsa interaktiv o'qitish usullari va shakllarining to'liq spektridan foydalanish samarali hisoblanadi. Talabalar adabiy matnlarni o'qish davomida o'z fikrlarini shakllantirishni, keyingi taqdimot uchun material

to'plashni va qayta ishlashni, jadvallar, chizmalar va grafikalar yordamida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganadilar, shuningdek, uyda ushbu asarni mustaqil ravishda to'liq o'qishga harakat qilishadi. Bunday taqdimotlar talabalarning motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi, ijodiy faoliyat va mustaqillikni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ma'lumotni taqdim etishning noan'anaviy shakli tufayli talabalar nemis tilini o'zlashtirishga qiziqishni kuchayadi. Loyiha faoliyati, shuningdek, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga, hamkorlik asosida kommunikativ faollikni rivojlantirishga yordam beradi; boshqa madaniyatni bilish va aloqalarni o'rnatish uchun til va mamlakatshunoslik bilimlaridan foydalanish imkoniyatlarini ochadi.

Dars jarayonida badiiy asar namunalari sahnalashtirish, rolli ijro tashkil etish ham alohida ahamiyatga ega. Talabalar o'rtasida to'g'ri tanlangan va taqsimlangan rollar ularni kommunikativ o'zaro ta'sirga undaydi, nutq xatti-harakatlarini dasturlashtiradi, ijtimoiy va nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur kommunikativ bazani yaratadi. Ushbu holatlar jamoaviy ish orqali amalga oshiriladi, bunda har bir talaba faol o'zaro ta'sir sharoitida bo'ladi, asosiy e'tibor o'quv jarayonini iloji boricha tabiiy va haqiqiy aloqa sharoitlariga yaqinlashtirishga qaratilgan.

Lingvistik jihatdan boy bo'lgan badiiy matnlar talabalarning leksik va grammatik bilimlarini mustahkamlashga, shuningdek, badiiy adabiyotda qo'llanilgan grammatik konstruksiyalar va frazeologik birikmalar ularning grammatik bilimini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, badiiy adabiyot talabalarga Germaniya madaniyati, tarixi, urf-odatlarini va qadriyatlarini haqida ko'proq ma'lumot beradi, bu esa ularning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nemis tilini o'qitishda badiiy adabiyotlardan foydalanish usuli talabalarning lingvistik va madaniy bilimlarini boyitishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu yondashuv tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Badiiy adabiyotlar o'z navbatida, talabalarning lug'at boyligini oshiradi va grammatik qoidalarni amalda qo'llashga imkon beradi, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Kommunikativ yondashuv nemis tilini o'qitishda asosiy metod sifatida tan olinadi, chunki bu yondashuv o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularni tilni tabiiy muhitda qo'llashga o'rgatadi. Badiiy adabiyotlar orqali esa talabalar tilni amalda qo'llash ko'nikmalarini yanada mustahkamlashadi va grammatik qoidalarni osonroq o'zlashtiradilar, nemis tilidagi talaffuz va intonatsiya qoidalarini o'zlashtirishiga yordam beradi, chunki ular asarlarni ovoz chiqarib o'qish orqali talaffuzni mashq qilishadi. Bundan tashqari, badiiy asarlarning tilni o'qitish jarayoniga integratsiyalashuvi talabalarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni tilni yanada faol o'rganishga undaydi. Xorijiy tillarni

